

# O‘ZBEK OILALARIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA SOG‘LOM VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA OILANING O‘RNI

Saidov Azamat Ismoilovich, ps.f.d. prof.v.b  
Samrqand davlat chet tillar instituti

[saidovazamat@bk.ru](mailto:saidovazamat@bk.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek oilalarida milliy qadriyatlar asosida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bugungi kunda milliy qadriyatlar asosida o‘zbek oilalarida farzandlarni tarbiyalash borasida yo‘l qo‘yilayotgan ayrim kamchiliklar to‘g‘risida mulohazalar bayon etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** sog‘lom avlod, milliy qadriyatlar, millat, tarbiya, ijtimoiy muhit, oila, urf-odatlar, nizoli vaziyatlar, xulq-atvor.

Oilaning mustahkamligi, undagi ma‘naviy muhitning barqarorligi yoshlarning salomatligiga, sog‘lom turmush tarzi malakalariga ega ekanligiga ham bog‘liq. Bunda ota-onaning, yaqin qarindosh-urug‘larning umuman sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari va ularning kundalik turmushda salomatlikni asrash ko‘rikmalariga ega ekanliklari katta ahamiyat kasb etadi.

Oilada sog‘lom turmush tarzining shakllanishi va bir umrga ana shu ko‘nikmalarga rioya qilishi ko‘p jihatdan har bir oila a‘zosining aqliy, axloqiy, irodaviy tarbiyasiga bog‘liq va insonning birinchi navbatda, o‘z-o‘ziga bo‘lgan talabchanligidan kelib chiqadi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, kishilarning o‘z sog‘liqlari to‘g‘risidagi qayg‘urishlari, ularning turmush darajasi, sifati, har bir shaxsning yashash tartibi (stiliga) va mazkur mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga ham bog‘liq. Shu boisdan ham, mamlakatimizda bugun aynan xalqimiz faravonligini yanada ko‘tarish, jamiyatda har bir kishining xohlagan turdagi jismoniy tarbiya va sport turlari bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini yaratish va eng asosiysi, odamlarni, ayniqsa, yoshlarni jismoniy madaniyatli va sport bilan shug‘ullanish, har bir fuqaro turmush tarzining ajralmas bir bo‘lagiga aylantirish va ijtimoiy odat sifatida ongiga singdirish bugunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Oila har xil jinsli shaxslarning roziligi, kelishuvi asosida o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlarini birgalikda olib borish va o‘zlaridan nasl qoldirish maqsadida tuziladigan jamiyatdir. Oila qurgandan keyin odamning asosiy hayoti va faoliyati oilada o‘tadi va u inson holatiga va sog‘lig‘iga o‘zining ijobiy yoki salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi mumkin. Odatda, bu omillarning ko‘pchiligini ijtimoiy-iqtisodiy yoki ijtimoiy-psixologik omillar deb ham yuritiladi.

Oilada ana shu muammolarning yoki quvonchlarning ko‘proq yoki aksining bo‘lishi, ko‘p jihatdan oilada shakllangan ijtimoiy-psixologik me‘yorlarga, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga, oila a‘zolarining aqliy, axloqiy, nafosat va boshqa tarbiyalarning qanchalik shakllanganlik darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Odam hayoti, sogʻligʻi - eng katga ijtimoiy boyliqdir. Bu oila, maktab va inson tarbiyasi, kamoloti bilan shugʻullanuvchi boshqa maskanlar oldiga sogʻlom turmush tarzini shakllantirish masalasini koʻndalang qoʻyadi. Millat sogʻligʻi ham tabiiy ravishda, sogʻlom turmush tarzi orqali hal etiladi. Shu boisdan, yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash ajdodlarimizning azaliy orzu niyati boʻlib kelgan.

Tarbiya bu insonning oʻzi va oʻz xulqi haqidagi tasavvurining toʻgʻri va xolis boʻlishini taʼminlovchi murakkab jarayon hisoblanadi. Buyuk maʼrifatparvar Abdulla Avloniy tarbiya haqida “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir,”- degan fikrni aytib oʻtgan. Uning bu fikrini keng mushohada qiladigan boʻlsak, bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga alohida eʼtibor bilan yondoshish zarurligi ayon boʻladi. Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, millatga xos boʻlgan anʼanalar, qadriyatlar, urf-odatlar shaxs maʼnaviyati, kamolotini shakllantiradi [1].

Xalqimizda “Vatan ostonadan boshlanadi” degan dono hikmat mavjud. Ostona oiladan boshlanib, u maʼnaviyat, tarbiya oʻchogʻi, jamiyatning asosiy boʻgʻini hisoblanadi. Oilaning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas anʼanalari orqali yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, iymon-eʼtiqod, masʼuliyat, insonparvarlik kabi ezgu gʻoyalar joy oladi.

Oila bilan birgalikda yosh avlodni tarbiyalashda mahallaning oʻrni ham beqiyosdir. Mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va anʼanalariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani amalga oshiradi. Mahalla, maktab va jamoatchilikning avloddan avlodga meros boʻlib oʻtib kelayotgan milliy qadriyatlarga tayangan holda ish koʻrishi farzandlar tarbiyasida ijobiy natijalarga olib kelishi shubhasizdir. Mamlakatimizda sogʻlom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-taʼlim muassasasi hamkorligini kuchaytirish samaralar garovidir. Bu borada hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan yoʻnalishlar quyidagilardan iborat:

- oila, mahalla, taʼlim muassasalari hamkorligini taʼminlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan uslubiy taʼminotni mustahkamlash;

- oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish;

- oilalarda sogʻlom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish;

- har bir oila aʼzolarining ongida sogʻlom turmush tarzi tushunchasi va munosabatini shakllantirish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va maʼnaviy qoʻllab quvvatlash;

- barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;

- sogʻlom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni yoʻlga qoʻyish.

Yoshlar oʻrtasidagi sogʻlom turmush tarzi toʻgʻrisidagi tasavvurlarni shakllantirish – bu faol mehnat, kuchli jismoniy va ruhiy holat, koʻtarinki kayfiyat, oʻta xavfli va zararli taʼsir koʻrsatuvchi omillarni yenga oladigan, yetuklikka intiluvchan shaxsning shakllanish jarayonidir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning ijtimoiy-

siyosiy, ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini samarali hamda ta'sirchan uslubda amalga oshirish maqsadida har bir ta'lim muassasasida sog'lom turmush tarzi, shaxsiy gigiena, oila ma'naviyati, zararli illatlarning sog'lom bola tug'ilishiga salbiy ta'siri haqidagi tibbiy bilimlarini oshirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulotlari, davra suhbatlari keng joriy etilmoqda. Bu yoshlarimiz ongida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar avvalo yoshlarni har jihatdan yetuk qilib tarbiyalashga yo'naltirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda "oila-mahalla-maktab hamkorligi konsepsiyasi"-ning tadbiiq etilishi barkamol avlod tarbiyasi islohotlarining yangicha yondashuvlarga asoslangan modeli bo'lib hizmat qilmoqda. Bu masalaning bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi shundaki, yoshlarning xususan, talabalar ijtimoiy-siyosiy faolligi, barkamol avlod bo'lib yetishishi, har tomonlama yetuk kadrlar bo'lishida, ularning sog'lom turmush tarziga amal qilib voyaga etishida oila va mahalla institutlari hamkorligining yangi imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir inson o'z oilasining fayzli, farovon va mustahkam bo'lishini istaydi. Ammo oila qurib, yurtparvar, aqlli, solih farzandlar o'stirib, kamolga etkazish g'oyat mushkul ish ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Hech bir shubhasiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma'nan va aqlan tarbiya topadi. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi va tez rivojlanadi. Inson o'zini o'rab turgan dunyo haqidagi bilimlarini ma'naviyat va axloq haqidagi ilk tushunchalarni yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi boshlang'ich tasavvurlarni oiladan oladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda asosan profilaktik tekshirish, uzoq muddatli kasalliklarni aniqlash va davolash, sog'lom turmush tarzini amalga oshirish, shu bilan birga zararli ko'nikmalar bo'lgan chekish, ichish va giyohvandlik, erta va qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, OITSning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, oila qurishdan maqsad nafaqat ikki yoshning baxtli va birga hayot kechirishi, balki sog'lom farzandlarni dunyoga keltirish va mustahkam oila barpo etishdir. Vaholanki, sog'lom muhitni tashkil etishda ko'plab tarkib va birikmalar, shu bilan birga, ikki yoshning salomatligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir. Mahalla – insonni jamiyat bilan uyg'unlashti-radigan hamda shu ruhda tarbiyalaydigan eng katta sahovatli go'sha va beqiyos Vatandir. Mustaqillik sharofati tufayli qo'shnichilik va mahallachilik an'analari yangi ruhda shakllanib, oilaviy maishiy munosabatlarni mustahkamlovchi hamda barcha to'y-hashamlarda, ma'rakalarda hamdard, kamarbasta bo'lib, o'zaro yordam berib qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda. Mahallachilik katta-kichikni hurmat qilish, yoshi ulug'larni e'zozlash, oilaviy munosabatlarda ahillikni saqlash kabi fazilatlarni nazorat qilishda yetakchi o'rinda turadi. Zero, har bir o'zbek farzandi dastlabki tarbiyani mahalladan oladi.

Tarbiya borasidagi milliy qadriyatlarimiz bo'yicha mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib ularni to'g'ri yo'lga chaqirgan. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. Yoshlarning har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lishida oila va qo'ni-qo'shnilarning o'rni borasida muqaddas dinimizda ham katta ahamiyat beriladi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Oilada farzandlarni ma'naviy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularni ma'nan yetuk, axloqan pok, aqlan zukko va sog'lom avlod bo'lib yetishishlarida muhim o'rin tutadi. Ammo, bugungi kunda ayrim oilalarda bu masalada qator kamchiliklar ham ko'zga tashlanmoqda. Quyida o'zbek oilalarida milliy qadriyatlar asosida farzandlarni tarbiyalash borasida yo'l qo'yilayotgan ayrim kamchiliklar to'g'risida fikr yuritishga harakat qilamiz.

1. *Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarimizdan, ya'ni ertak, maqol, rivoyat va hadis ilmidan yetarlicha foydalanilmayotganlik holati.*

2. *Oilada bolalar tarbiyasida qariyalarning ishtirok etmasligi holati ham bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.*

3. *Bolalar va o'smirlarda g'ayriaxloqiy xulqning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi oilaviy tarbiyaga bog'liq bo'lgan omillardan yana biri oilaviy tarbiyada primitiv (eskirgan, noma'qul) usullardan foydalanishdir.*

4. *Oilalarda farzandlar uchun imkon qadar moddiy va maishiy sharoitning yaratib berilmasligi holati ular xulqida og'ishlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.*

5. *Ayrim oilalarda farzandlarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi holati.*

6. *Ayrim ota-onalarning oilada farzandlari bilan qilayotgan muomala-munosabatlari bolalar va o'smirlarda g'ayriaxloqiy xulqning kelib chiqishiga sabab bo'lishi holati.*

7. *Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan jiddiy qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari, ko'pincha o'smirni g'ayriqonuniy xulq-atvoriga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar safiga qo'shib ketishga olib keladi.*

8. *Oilaviy tarbiyada qo'pollik, andishasizlik, haqorat, do'q-po'pisa va jismoniy jazolash singari usullardan foydalanish holati ko'pincha bolalar va o'smirlarning uydan qochishiga, biron ish qilib qo'yib ota-onasidan qo'rqqanidan ko'chalarda daydisirab yurishiga, qaerlardadir tunab qolishiga olib keladi.*

9. *Oilalarda ota-ona hamda farzand o'rtasidagi munosabatlarda o'ziga xos samarasiz usullardan foydalanilish holati.*

10. *Ota-onalarning rad etish, ta'qiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi*

*tarbiyalash usuli ba'zan bolalar va o'smirlarda tarbiya buzilishiga olib keladi.*

11. *O'zbek oilalarida ota-onalarning farzandlarni tarbiyalashdagi kamchiliklaridan yana biri bolalarning tarbiyasiga yoshligidan e'tibor berilmaslikdir.*

12. *Oilalarda farzandlarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ma'nan barkamol etib tarbiyalash borasidagi e'tiborsizlik.*

Ma'lumki, sog'lom avlodning shakllanishida oilaning, oila muhitining o'rni katta. Oiladagi o'zaro sog'lom munosabatlar, psixologik muhit va sog'lom turmush tarzi har tomonlama barkamol avlodlarni voyaga yetkazishda bosh omil hisoblanadi. Shu boisdan, eng avvalo oilada sog'lom turmush tarzi muhitini, psixologiyasini shakllantirish muhimdir. Ammo kuzatishlarimizga qaraganda, ko'pchilik oilalarda sog'lom turmush tarzi psixologiyasini shakllantirish masalasida o'zi bo'larchilik holati uchraydi. Bu esa oilalarda voyaga yetayotgan farzandlar ongida, dunyoqarashida sog'lom turmush tarziga nisbatan nosog'lom munosabatning paydo bo'lishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek xalqining ma'naviy va milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari oila va oilaviy munosabatlarda, jumladan bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Jismonan baquvvat, ma'nan barkamol, aqlan yetuk farzandlarni voyaga yetkazish tamoyili Sharq ijtimoiy tafakkurining va mentalitetining asosiy mazmunini tashkil etadi. Chunki, bolani tarbiyalash orqali mehr-muruvvat tuyg'ulari shakllangan barkamol insonni voyaga yetkaziladi. Bola qadriyati – bu o'zbek xalqi turmush tarzi, ruhiyati, bolajonlik odatlari, serfarzandlik va ayni paytda sog'lom, baquvvat, ma'naviy va jismoniy yetuk avlod yetishtirish an'analari, tafakkur tarzidir.

Shuni aytib o'tish joizki, miliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar oilada bizgacha yetib keladi. Shu muhitda o'sayotgan millatimiz kelajagi merosxo'rlari farzandlarimizni milliy urf-odatlariga xos qilib tarbiyalash lozimdir. Nazarimizda oilaviy tarbiya bo'yicha milliy qadriyatlarimiz va udumlarimizga eskilik sarqiti deb qarash noto'g'ridir. Boy va rang-barang madaniyatimiz, urf-odat va an'analарimiz barcha qadriyatlarimiz milatimizning ma'naviy, ruhiy boyliklarini tashkil etadi. Uni chuqur o'rganib, o'zlashtirib olgan inson oldiga qo'yilgan har qanday maqsadga erisha oladi. Chunki madaniyatimiz axloq-odob, urf-odat me'yorlaridan xabardor inson hech qachon ko'r-ko'rona ish qilmaydi.

Demakki, barcha milliy tarbiya bo'yicha urf-odatlarimiz zamirida ezgulik yotadi. Ularda faqat ozodalik, yaxshilik, odamiylik kasb etadi. Milliy urf-odatlarimiz asnosida tarbiyalangan shaxs yuksak ma'naviyati boy inson bo'lib shakllanadi. Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

## **ADABIYOTLAR**

1. Iloyaev M. "Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat". T., "Sharq" 2000. 114 b.
2. Oilaviy muhit va bolalar // Qalqon. – 2006, - №1.- B.14-15.
3. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. (Monografiya) "Fan" nashriyoti, Toshkent – 2008, 284 b.

4. Yadgarova G.T., Avlaev O.U. Tarbiyasi qiyin, qaltis guruhga mansub bolalar bilan ishlash (Uslubiy qo‘llanma)T.: 2007, 74 b.
- 5.Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.
6. Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В7. – С. 867-871.
7. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.